



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 27 - may

I-59-98-14-220-K/23

Yangihayot tuman hokimligi

Yangihayot tumanida “Temir daftar”ni yuritish orqali moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kam ta‘minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora - tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-iyuldagi Q-5204-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22- apreldagi 213-F-son farmoyishi va “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 28-apreldagi 250-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Tashpulatovning “Temir daftar”ni yuritish orqali tumandagi moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sektor rahbarlari (X.Inogamov, O.Xadjayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Tashpulatov) hamda “Mahalla” xayriya jamoat fondi Yangihayot tuman bo‘linmasiga:

1-sektorning 2023-yil 24-maydagi 01/149-sonli va 3-sektorning 2023-yil 25-maydagi 27/59-c-49-sonli xatlariga asosan quyidagilar belgilansin.

“Temir daftar”dan chiqariladigan oilalar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va ular bu haqida belgilangan tartibda xabardor qilinsin;

“Temir daftar”dan chiqarilgan oilalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “saxovat.argos.uz” axborot tizimiga kiritilsin va “saxovat.argos.uz” axborot tizimida “Temir daftar”ni yuritish bilan bog‘liq masalalar to‘liq aks ettirib borilishi ta‘minlansin.

Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Temir daftar” ro‘yxatiga kiritiladigan oilalar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

“Temir daftar”ga kiritilgan ehtiyojmand oilalarning ma‘lumotlari “saxovat.argos.uz” saytiga raqamli imzo kaliti orqali elektron shaklda kiritilishi ta‘minlansin.

“Temir daftar”ga kiritilgan oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va muammolarini hal etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

“Temir daftar” ro‘yxatiga kiritilgan ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir bo‘lgan oilalarga “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan yordam ko‘rsatiladigan fuqarolar ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi "Mahalla" xayriya jamoat fondi Toshkent shahar Yangihayot tuman bo‘linmasi, “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi raisi (A.Abdumajidov), bosh hisobchi (N.Nurmatova)ga:

“Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi hisobidan ajratilgan mablag‘lar o‘rnatilgan tartibda, maqsadli va samarali sarflanishi ta‘minlansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazoratini olib borish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (I.Yuldasheva) va Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (B.Raximov) zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashi raisi**



X.Inogamov

Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashining
2023 yil 27 maydagi
I-59-98-14-220-K/23-son
qaroriga
1-ilova

“Temir daftar”dan chiqariladigan oilalar ro‘yxati

№	Sektor	MFY nomi	F.I.Sh	Pasport raqami	Tug‘ilgan kun, oy, yili
1.	3	“Navqiron”	Falberg Vladimir Viktorovich	AA9869956	15.10.1952
2.	3	“Yangi Turmush”	Djuraeva Ma’mura Zokirjon qizi	AA2786094	06.07.1990
3.	3	“Marhamat”	Abdieva Mahliyo A’zamovna	AA8630294	02.07.1990
4.	3	“Marhamat”	Umirzakov Madiyor Urazovich	AD3289121	22.01.1985
5.	3	“Xumo”	Narzullaeva Munavvar Qaxxorovna	AA0722737	20.01.1988
6.	3	“Yangi Turmush”	Akramova Muxayyo Rustamdjanovna	AC1051996	19.09.1982
7.	3	“Yorqinhayot”	Manapov Abduvaxab Abdujapparovich	AA2361930	17.09.1968

Xalq deputatlari Yangiheyot
tuman Kengashining
2023 yil 27 maydagi
I-59-98-14-220-K/23-son
qaroriga
2-ilova

**Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash
maqsadida tuman “Temir daftar” ro‘yxatiga kiritiladigan oilalar ro‘yxati**

№	Sektor	MFY nomi va yashash manzili	F.I.Sh	Pasport raqami	Tug‘ilgan kun, oy, yili
1.	3	“Gulshanobod”	Umarova Saodat Shodikulovna	AD0421437	16.06.1990
2.	3	“Gulshanobod”	Turgunova Gulmira Baxodirovna	AD1535384	27.06.1987

Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashining
2023 yil 27 maydagi
I-59-98-14-220-K/23-son
qaroriga
3-ilova

**“Temir daftar”ga kiritilgan oilalarni ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va muammolarini hal etish bo‘yicha
“YO‘L XARITA”**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas‘ul ijrochilar
1.	1 nafar ijtimoiy kamta‘minlangan fuqaroni oila a‘zolari bilan “Temir daftar”ga kiritish orqali ijtimoiy himoya qilish va davolanish xarajatlariga ko‘maklashish	Tuman “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi tomonidan belgilangan mablag‘lardan	Shartnomaga asosan	Yangihayot tumani hokimining birinchi o‘rinbosari sektor rahbarlari, “Mahalla xayriya jamoat fondi
2.	1 nafar ijtimoiy kamta‘minlangan fuqaroni oila a‘zolari bilan “Temir daftar”ga kiritish orqali moddiy yordam ko‘rsatish	samarali foydalanishni ta‘minlash	Kelishilgan holda	
3.	“Temir daftar”ga kiritilgan fuqarolarning ijtimoiy ahvolini o‘rganish va ularni qo‘llab quvvatlab, ularning kambag‘allikdan chiqishlarini ta‘minlash	Tuman “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi tomonidan belgilangan mablag‘lardan samarali foydalanishni ta‘minlash	Muntazam	Yangihayot tumani hokimining birinchi o‘rinbosari sektor rahbarlari, “Mahalla xayriya jamoat fondi

Xalq deputatlari Yangiheyot
tuman Kengashining
2023 yil 27 maydagi
I-59-98-14-220-K/23-son
qaroriga
4-ilova

“Temir daftar” ro‘yxatiga kiritilgan ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir bo‘lgan oilalarga “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan yordam ko‘rsatiladigan fuqarolar ro‘yxati

№	Sektor	F.I.Sh	Mablag‘ ajratish sabablari	Mablag‘ yo‘naltiriladigan Korxonasi nomi (INN, MFO, h/r)	Ajratiladigan mablag‘ (so‘mda)
1.	1	Mamaraximova O‘g‘iloy Abdusamatovna	farzandining davolanishi uchun moddiy yordamga muhtoj	MCHJ “Aloe-plus invest” h/r 20208000100961564001 MFO 01046 INN 305944712	10 357 000
2.	1	Muslimova Maxpuza Raxmatullayevna	davolanishi va dori-darmon vositalari uchun moddiy yordamga muhtoj	MCHJ “Aloe-plus invest” h/r 20208000100961564001 MFO 01046 INN 305944712	11 592 000
3.	1	Ibragimova Mukambar Nigmanovna	farzandining davolanishi uchun moddiy yordamga muhtoj	“Shahar 5-son klinik shifoxonasi” h/r 2340200030100001010 MFO 00014 INN201122919	6 235 700
4.	1	Suleymanova Zuxra Baxramdjanovna	davolanishi va dori-darmon vositalariga muhtoj	MCHJ “Aloe-plus invest” h/r 20208000100961564001 MFO 01046 INN 305944712	10 080 500
5.	3	Umarova Saodat Shodikulovna	davolanishga muhtoj	MCHJ “Omad Rlyus” h/r 2020 8000 0002 6472 8001 MFO 00083 INN 302747476	10 000 000
6.	3	Yusupbekova Gulnora Abdulladjanovna	moddiy yordamga muhtoj	Xalq Banki UZCARD h/r 2312 0000 7000 1134 4100 MFO 01125 INN 207215726 Pl/k 8600 0609 2518 5127	3 000 000
7.	3	Turgunova Gulmira Baxodirovna	moddiy yordamga muhtoj	Xalq Banki UZCARD h/r 2312 0000 7000 1134 4100 MFO 01125 INN 207215726 Pl/k 8600 0609 8865 2708	3 000 000